

TARAQQIYOT VA MA`RIFAT UCHUN KURASHGANLAR TAQDIRI.

Murodov Halim Salimovich

Buxoro davlat pedagogika institute Ijtimoiy fanlar kafedrası, PhD.

murodovhalim645@gmail.com Tel: +998906131416.

Rabiyeva Zarnigor Istam qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti, tarix yo`nalishi 1 TAR-23.

asadivistam@gmail.com Tel: 9318817 57.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11237324>

Annotatsiya. Ushbu maqola XX asrning 20- yillarida boshlanib, 1937- 1938-yillarda o`zining avj nuqtasiga yetgan ayanchli qatag'on davri va uning sabablari aynan shu yillardagi siyosiy davrning qurbonlari haqida yosh tadqiqotchi tomonidan ayrim mulohazalarni yoritib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Shahidlar xotirasi, Adibi soniy, Butirka, Botu, Turon, jadid, yangi usuli, kolonial.

СУДЬБА ТЕХ, КТО БОРОЛСЯ ЗА РАЗВИТИЕ И ПРОСВЕЩЕНИЕ

Аннотация. Данная статья пытается пролить свет на печальный период репрессий, начавшийся в 20-е годы XX века и достигший своего апогея в 1937-1938 годах, и его причины.

Ключевые слова: Память мучеников, Адипи Сони, Бутирка, Боту, Турон, современный, новый метод, колониальный.

THE FATE OF THOSE WHO FOUGHT FOR DEVELOPMENT AND ENLIGHTENMENT

Abstract. This article tries to shed light on the sad period of repression that began in the 20s of the twentieth century and reached its apogee in 1937-1938, and its causes.

Keywords: Memory of the Martyrs, Adibi Soni, Butirka, Botu, Turon, modern, new method, colonial.

Bundan chorak asr muqaddam, 1999-yil 12 – may kuni, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish masalasiga bag'ishlangan farmoyishi e'lon qilingan edi. Bu tarixiy farmoyishdan keyin ko'p o'tmay, o'sha yilning 22- iyul kuni Respublika Vazirlar Mahkamasi "Vatan va xalq ozodligi yo'lidagi qurbon bo'lgan fidoiylar xotirasini abadiylashtirish to'g'risida" qaror qabul qilingan. Shu ikki hujjat chor va sovet hokimiyati davrida mustamlakachilik jabru jafolarini ko'rgan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirish ishlarining boshlanishi va keng miqiyosida olib borilishida muhim rol o'ynadi. 2001- yil 1-may sanali Prezident I.A.Karimovning farmoni bilan "Qatag'on davri qurbonlarini yod etish kuni" ning tasis etilishi, shuningdek, "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuida "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyining barpo etilishi mamlakatimizning ijtimoiy va ma'naviy hayotida ulkan voqea bo'ldi. Shunday qilib, mustaqillik yillarida tarixiy adolat va haqiqatni tiklash ishlari bir necha yo'nalishda olib borilmoqdaki, shu yo'nalishlardan biri mustamlakachilik davri qurbonlarining pok nomlarini oqlash va ularni xotirasini abadiylashtirishdir.

Endi bunga e'tibor qaratadigan bo'lsak ya'nikim jadid taraqqiyot yetakchilarimiz nima sababdan qatag'on qurboniga aylandilar? O'sha paytlarda Turkistonni mustaqil qilishga intilgan, xalqni ilmiy qilish va ularga o'zlikni anglatishga harakat qilgan har qanday hurfikr shaxslar Sovet hokimiyati tomonidan turli bo'hton va uydirmalar orqali qoralanib xalq dushmani deya atalib qamoqqa olingan, surgun qilingan, yoki to'g'ridan to'g'ri otib o'ldirishga hukm qilinganliklarini ko'rishimiz mumkin.

Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931) - Turkiston ma'rifatparvarlari - ning rahnamolaridan biri. 1901- yilda Toshkentda usuli jadid maktabini ochib, keyinchalik yangi maktablar uchun "Adibi avval", "Adibi soniy" qo'llanmalarini yozgan. "Xurshid" gazetasini chiqargan (1906), 1909 -yilda "Xayriya", 1913- yilda "Turon" jamiyatlarini tuzgan va "Turon" (1917) gazetasini chiqargan. Xorijda o'qigan talabalar uchun (1908 – 1923) yordam uyishtirgan. 1917 – yil Fevral inqilobidan so'ng "Sho'roi islomiya" jamiyatini tuzdi. Sovet davrining dastlabki yillarida "Namuna" maktablarida dars berib, qo'llanmalar yozdi. "Milliy ittihad" (1921 -1923) va "Milliy istiqlol" (1923 -1929) tashkilotlarida faol qatnashdi. Shuning uchun 1929 -yil 25 - noyabrda hibsga olinib, 1931 – yil 23 – aprelda 52 yoshida Moskva shahridagi Butirka qamoqxonasida qatl qilingan va Vagankova qabristoniga dafn etilgan[1]. 1991 – yilda rasman reabilitatsiya qilingan. Xo'sh bu marifatparvar jadidimiz nima sababdan otib o'ldirildi? Bunga sabab u Sovet davlatining chirkin uydirmalarining qurboniga aylandi. Sovet davlati Munavvarqori Abdurashidxonovni nohaq millatchilikda aybladi.

Ubaydulla Asadulla o'g'li Xo'jayev (1886 – 1938) - Turkiston taraqqiyparvarlaridan, huquqshunos, matbuotchi. Rus –tuzem maktabida, Saratov universitetining yuridik fakultetida o'qigan (1909 – 1912). "Sadoi Turkiston" (1914 – yil 1- aprel - 1915 – yil 10 – aprel) gazetasining muharriri bo'lgan. 1916 – yil milliy ozodlik va 1917 – yil Fevral inqilobidan so'ng milliy istiqlolchilik harakatida faol qatnashdi. 1917 – yil noyabrdan 1918 – yil fevralgacha Turkiston muxtoriyatining a'zosi bo'lgan. Muxtoriyat bolsheviklar tomonidan yiqitilgach, 1920 – yilda Moskvadagi Butirka qamoqxonasida bir muddat hibsdan bo'lib, 1921 – yilda ozod bo'ldi. 1929 – yil 25 – noyabrda milliy istiqlolchilik harakatining faol a'zosi sifatida qamalib, 1931 – yil 10 yilga surgun qilinadi. Surgundan qaytib kelgach, 1938 – yilda yana hibsga olinib, qamoqda vafot etadi.

E'tibor qaratadigan bo'lsak har bir ziyoli dunyo ilmidan boxabar bo'lgan va xalqni o'ziga ergashtira oladigan ma'rifatparvar shaxslarning taqdiriga sovet davlati tomonidan aynan shu tarzda yakun yasalgan. Abdulvohid qori Abdurauf Qoriyev (1858 – 1938) – Turkistondagi taraqqiyparvar din arboblardan. Avval eski maktabda, so'ng Buxoro madrasasida o'qigan. 1906 – yilda Rossiya Davlat dumasiga a'zo bo'lib, 1908 – yil Turkistondagi chor kolonial siyosatiga qarshi chiqqani uchun 1909 – yilda Tula shahriga surgun qilinadi va u yerda buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoy bilan muloqotda bo'ladi. 1912 – yilda surgundan qaytgach, Toshkentdagi turli diniy ishlarda (1917 – yilgacha) ishlab, 1918 – 1920 –yillarda Turkiston avtonom respublikasi diniy boshqarmasi raisi, keyinroq 1927 – yilgacha shahar Mahkamai shariya idorasida xizmat qiladi. 1933 – yilda shubha ostida qamalib, besh yarim oy Qozog'istonda qamoqda bo'ladi. U yerdan qaytgach, 1937 – yil 6 – avgustda qamalib, 1938 – yil 18 –avgustda qamoqda vafot etadi[2].

Vaholanki sovetlar davrida islom diniga ham erkinliklar juda kam edi. Hattoki bizning diniy qadriyatlarimiz ham ular tomonidan oyoqosti qilingan va aynan Abdulvohid qori Abdurauf Qoriyev kabi din arboblari ham siyosiy taqibdan chetda qolmagan.

Botu (1904 – 1938) - Mahmud Maqsudovich Hodiyeving adabiy taxallusi. Toshkentda tug'ilgan, shoir, jurnalist. "Umid uchqunlari" (1925) va "Tovush to'lqinlari" (1929) she'riy to'plamlarining muallifi. 1922 –1927 – yillarda MGU ning rabfak va iqtisod fakultetida o'qigan. 1927 – 1928 – yillarda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetida mas'ul instruktor (yo'riqchi), matbuot bo'limining muvaqqat mudiri bo'lib ishlagan. 1928 – 1929 – yillari Samarqand okrug partiya komitetining tashviqot va targ'ibot bo'limiga mudirlik qilgan. 1929 – 1930 –yillari O'zbekiston maorif xalq komissarining o'rinbosari lavozimida bo'lgan. 1930 – yil 23 – iyulda "Milliy istiqlol" yashirin tashkilotining a'zosi sifatida GPU tomonidan qamoqqa olingan. "Narkompros ishi" deb atalgan guruh tarkibida OGPU "uchligi" ning 1933 – yil 11-martdagi qaroriga binoan otuvga hukm qilingan, hukm 10 yil qamoq jazosi bilan almashtirilgan. Qatag'onning 1937 – yilgi o'p'qoniga ham tortilib, 1938 – yil 9 – mayda otib tashlangan[3].

Xulosa qiladigan bo'lsak, Sovet davlati yuritgan siyosatga qarshi chiqqan har qanday inson o'sha davrda xuddi mana shunday ayanchli taqdirga mahkum bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

O'sha davrda Sovet davlati aholini savodsizlikda saqlash orqali o'ziga bo'ysundirish siyosatini olib borayotgan edi. Bizning marifatparvarlarimiz esa xalqni savodsizlik balosidan qutqarib o'zlikni anglash sari harakatlantirayotganligi ularni tashvishga solayotgan edi. Aynan shuning uchun ham yuqorida nomlari sanab o'tilgan va yana boshqa marifatparvarlarimiz ham siyosiy bo'htonlar girdobida qolib ketishgan. Eng achinarlisi sovetlar tomonidan Xalq dushmani deb atalgan marifatparvarlarimizni hattoki yerlik o'lka ham shunday tahqirlaganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa albatta sovet davlatining savodsiz omma ongiga xuddi shunday bo'htonlarning singdirilishi oqibatida yuzaga kelgan. Bir tomondan shuni ham ta'kidlash kerakki sovetlar tomonidan bizga faqat rus madaniyati ruslarning urf - odatlari singdirilishga harakat qilingan va bu yo'lda ular rusiyzabon aholini ko'chirtish siyosatini ham olib bordilar, bu sovet davlati xohlagandek natijani bermagan bo'lsa ham baribir ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazgan. Mustaqillik tufayli xalqimiz uzoq kutgan jadid bobolarimiz xotirasini qayta tiklash, ularga ehtirom ko'rsatish, ilmiy va adabiy merosini o'rganishga shuningdek, jadid bobolarimiz hayotining serqirra faoliyatidan barkamol avlodni tarbiyalashda keng foydalanishga imkoniyat yaratildi.

REFERENCES

1. "Tarixning noma'lum sahifalari". G'afur G'ulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi; Toshkent -2009. 15 – 99 – bet.
2. "Turkistonda jadid maktablari". Toshkent; "Universitet". 2006. 26- 78- bet.
3. Alimova D. "Jadidchilik fenomeni". Toshkent; "Akademnashr". 2022. 96- 268-bet.
4. Мурадов, Х. (2023). ОБЗОР ИСТОРИИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(S/8). <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N05>
5. Jiyanmuratova Gulnoz. Sotsiologiya tarixi. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 466 b. / https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAAAJ&citation_for_view=fdboTmYAAAAJ:W7OEmFMy1HYC

6. Murodov Halim Salimovich. (2023). BUXORO TURIZMI VA MILLIY HUNARMANDCHILIK. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(12), 93–96. Retrieved from <https://jets.innovascience.uz/index.php/jets/article/view/149>
7. Salimovich M. H. (2024). The Role of the Cultural Sector in the Development of Bukhara Tourism. *Miasto Przyszłości*, 45, 729–735. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2725>
8. Salimovich, M. H., & Nasriyevna, B. F. (2024). VIZA–TURIZM SIYOSATI UCHUN KENG QULAYLIK OMILI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(3), 589-597.
9. Halim, M. (2024). MUSTAQILLIK ARAFASIDA O 'ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJLANISHI VA MUAMMOLARI. *XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMATI*, 1(1), 19-23.